

UzAirPlus dasturida ishtirok etish qoidalari va shartlari.

Umumiy qoidalar.

“UzAirPlus” dasturi - “O‘zbekiston havo yo‘llari” xizmatlaridan foydalanuvchi tez-tez uchadigan yo‘lovchilarni rag‘batlantirish dasturi.

Mazkur qoidalar “UzAirPlus” dasturining barcha ishtirokchilariga istisnosiz joriy etiladi. Ishtirokchining Dasturga kirishi va kelgusida qatnashishi ushbu Qoidalarning barcha talablariga roziligini tasdiqlaydi. Mazkur qoidalar Dasturga tegishli bo‘lgan avvalgi barcha qoidalarning o‘rnini bosadi.

Ishtirokchilarning Dasturda qatnashishga tegishli shaxsiy ma’lumotlari Dastur ishlashi va Dasturda qatnashish bilan bog‘liq axborot materiallarining pochta orqali bevosita Ishtirokchining o‘ziga va hamkor kompaniyalarga tarqatilishini amalga oshirish maqsadida saqlanadi, ustida ishlanadi va foydalaniladi.

“UzAirPlus” dasturiga ro‘yxatga olish va qatnashish bepul. Ishtirokchining shaxsiy va oilaviy hisobi kabi ularga hisoblangan ballarni ham boshqa shaxslarga berish, sovg‘a yoki vasiyat qilish mumkin emas.

Tez-tez uchadigan yo‘lovchilarni mukofotlash turlari.

“UzAirPlus” dasturining yo‘lovchi-ishtirokchilarini mukofotlash quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- xizmat ko‘rsatish klassini mukofot tariqasida oshirish;
 - mukofot aviachiptasini berish;
 - bagajni bepul tashish me‘yorlarini oshirish tariqasida qo‘shimcha imtiyozlarni taqdim etish;
 - O‘zR aeroportlariga/dan uchib ketish va kelishda /yo‘lovchi tranziti chog‘ida CIP zali orqali xizmat ko‘rsatish tariqasida qo‘shimcha imtiyozlarni taqdim etish;
- Dastur ishtirokchilariga taqdim etiladigan xizmatlardan faqat “O‘zbekiston havo yo‘llari” MAK muntazam reyslarining parvozlari foydalanish mumkin.

Davlat yig‘imlari to‘lovi.

Mukofot chiptasini rasmiylashtirish chog‘ida, barcha belgilangan davlat, aeroport va boshqa yig‘imlar to‘lovi “UzAirPlus” dasturining yo‘lovchi-ishtirokchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur qoidalar aviakompaniya tomonidan avvaldan ogohlantirishsiz o‘zgartirilishi mumkin. Bunda, dasturga shunday o‘zgartishlar kiritilgunga qadar kirgan va mukofotlar olish uchun yetarli miqdordagi ballarga ega bo‘lgan “UzAirPlus” dasturining yo‘lovchi-ishtirokchilariga xizmat ko‘rsatish yangi qoidalarga muvofiq ular e‘lon qilingan kundan boshlab amalga oshiriladi.

Aviakompaniya xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish, pasaytirish, xizmat ko‘rsatish darajasida, yig‘ilgan mukofot ballaridan foydalanish uchun ruxsat berilgan marshrutlarda bo‘lishni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan yig‘ilgan ballar miqdorini, ularni yig‘ish davrini qayta ko‘rib chiqish va istalgan vaqtda o‘zgartirish huquqini o‘zida qoldiradi.

Shaxsiy dasturda ishtirok etish shartlari.

“UzAirPlus” dasturi shaxsan ishtirok etuvchilarining huquq va majburiyatlari.

“UzAirPlus” shaxsiy dasturida ishtirok etish individualdir. “O‘zbekiston havo yo‘llari” aviakompaniyasining reyslarida muntazam parvozlarni amalga oshiruvchi 16 yoshdan kichik bo‘lmagan har qanday jismoniy shaxs Dasturning individual ishtirokchisi bo‘lishi mumkin. Har bir Ishtirokchi uchun bitta Shaxsiy hisob ochiladi.

Tez-tez uchadigan yo‘lovchilar Dasturida ro‘yxatga turish.

Dasturda ishtirok etish uchun ro‘yxatga turish, shaxsiy hisob raqamini olish va a‘zolik anketa-arizasini to‘ldirish lozim. Anketani to‘ldirish Dastur shartlariga rozilikdan dalolat beradi. Ariza asosida “UzAirPlus” dasturi ishtirokchisiga hisob ochiladi, hisobning identifikatsion raqami beriladi, unda ishtirokchining parvozlari haqidagi ma’lumotlar yig‘iladi hamda internet – sayt hisob holatini mustaqil kuzatib borish uchun pin-kod beriladi.

Zarur bo‘lgan barcha shaxsiy va aloqa ma’lumotlarini, shu jumladan ism, familiya va tug‘ilgan yili sanasini amaldagi pasportiga muvofiq taqdim etgan ishtirokchilargina ball yig‘ish va Shaxsiy hisobida yig‘ilgan ballardan mukofot olish uchun foydalanish huquqiga ega. Aviakompaniya Ishtirokchidan taqdim etilgan Shaxsiy va aloqa ma’lumotlarining to‘g‘riligini aniqlashni talab etish huquqiga ega.

Hisob to'g'risidagi ma'lumotni real vaqt rejimida aviakompaniya saytida (www.uzairways.com) olish mumkin. Shaxsiy hisobga kirish ruxsatini olish uchun kartochka raqami va "shaxsiy kabinetga kirish" bo'limida shaxsiy pin-kodni ko'rsatish lozim.

Sovrinli ballarni hisoblash shartlari.

Ballar aviakompaniyaning e'lon qilingan tariflariga muvofiq parvozlarning puli to'langan uchastkalari va Ishtirokchining aviakompaniyaning muntazam reyslarida haqiqatan amalga oshirgan parvozlari uchun hisoblanadi.

"UzAirPlus" dasturining ishtirokchilari parvozlari uchun ballarni aviachiptada ko'rsatilgan marshrut uchastkalari bo'yicha oladi. Ballar aviachiptaning har bir parvoz kuponiga tegishli har bir parvoz segmenti uchun faqat MAK reyslarida tashishlarni bajarish chog'ida quyidagi aviachiptalar bo'yicha hisoblanadi:

- 250 kodi mavjud bo'lgan blankalarda rasmiylashtirilgan;
- Rossiya Transport Kliring palatasining (TKP) neytral blankalarida rasmiylashtirilgan;
- tashuvchining 250 kodi bo'lgan BSP neytral blankalarida rasmiylashtirilgan;
- kod-sher kelishuvlari bo'yicha hamkor-aviakompaniyalar reyslarida "O'zbekiston havo yo'llari"ga tegishli joylar blokida tashish uchun rasmiylashtirilgan;
- kod-sher kelishuvlari, interlayn kelishuvlar va o'zga aviakompaniyalarga tegishli blankalarda MAK muntazam reyslarida tashish shartnomasini tuzish imkonini beruvchi, tashish hujjatlarini o'zaro e'tirof etish to'g'risida MAKning boshqa turdagi kelishuvlari bo'yicha o'zga hamkor-aviakompaniyalar blankalarida MAK reyslarida tashish uchun rasmiylashtirilgan.

"UzAirPlus" dasturida xizmat ko'rsatish klassini bepul oshirishdan foydalanilgan parvoz uchun ballar marshrutining to'lov amalga oshirilgan uchastkalari uchungina va to'lov amalga oshirilgan xizmat ko'rsatish klassiga muvofiq hisoblanadi.

Har bir Ishtirokchi pasport ma'lumotlari, manzili, telefon raqami va boshqa ma'lumotlar o'zgartirish to'g'risida "O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasini o'z vaqtida xabardor qilish uchun javobgardir. Ishtirokchi aviachiptalarida ko'rsatilgan pasport ma'lumotlari va dasturda ro'yxatga olingan pasport ma'lumotlari mos kelmagan holda aviakompaniya ishtirokchi tomonidan ma'lumotlari o'zgartirish pasportning asl nusxasi taqdim etilgunga qadar ishtirokchi hisobiga sovrinli ballarni hisoblashni rad etish huquqiga ega.

Dastur ishtirokchisining shaxsiy hisobiga sovrinli ballarni hisoblash muddatlari.

Ballarni shaxsiy hisobga tegishli tartibda o'z vaqtida hisoblash uchun Ishtirokchi "Ishtirokchi kartasi"ni taqdim etishi, yoki aviachiptani bronlashda va to'lovni amalga oshirishda o'zining shaxsiy hisobi raqamini aytishi, yoxud MAK on-layn bronlash tizimi saytida aviachipta yoki xizmatlarni bronlash chog'ida o'zining shaxsiy hisobi raqamini shaxsan kiritishi lozim.

Shaxsiy hisobga ballarni hisoblash uchun "UzAirPlus" dasturi ishtirokchilari amalga oshirilgan parvozdan so'ng aviachiptalarining yo'lovchi kuponlarini (yoki ularning nusxalari) va/yoki posadka talonlarini saqlab qo'yishi kerak. Elektron aviachipta mavjud bo'lgan holda uning raqami, sanasi va marshrutini ma'lum qilish lozim.

Ballar yo'lovchi dasturda ro'yxatga olingan sanadan so'ng amalga oshirilgan parvozlari uchun hisoblanadi. Ishtirokchi "UzAirPlus" dasturida ro'yxatga olingan sanagacha 90 kundan ko'p bo'lmagan muddat ichida bajarilgan "O'zbekiston havo yo'llari" MAKning bitta muntazam reysi uchun ballarni hisoblash imkoniyati Dasturda nazarda tutilgan. Ushbu parvoz hisobga olinishi uchun ishtirokchi a'zolik anketasini to'ldirish chog'ida shunday parvoz bajarilgani fakti to'g'risida ma'lum qilishi va marshrutning har bir uchastkasi uchun yo'lovchi kuponi yoki posadka talonining asli yoki nusxasini taqdim etishi lozim.

Hisobga olinmagan parvozlari uchun ballarni tiklash.

Hisobga olinmagan parvoz aniqlangan taqdirda dastur ishtirokchisi tegishli parvoz hujjatlarining (chipta va posadka talonlari) asli yoki nusxalarini ushbu reys bajarilgan vaqtdan 12 oydan ko'p bo'lmagan muddat davomida, ammo Dasturda ishtirok etishi (ro'yxatga olinishi) boshlangan sanagacha 90 kundan avval bo'lmagan muddat ichida. Tegishli tekshirishdan keyin, ishtirokchi tomonidan parvozlari to'g'risidagi ma'lumotlari tiklanishi haqidagi ariza berilganidan so'ng ma'lumot bir oydan kech bo'lmagan muddat ichida tiklanadi.

Ishtirokchining bronlash yoki aviachipta uchun pul to'lash chog'ida noto'g'ri ko'rsatilgan yoki kiritilgan shaxsiy hisob raqami reysga ro'yxatga olish vaqtida tuzatilishi yoki o'zgartirilishi mumkin emas. Nomuvofiqliklarni tekshirish va bartaraf etish uchun yo'lovchi Tez-tez uchadigan yo'lovchilar xizmatiga murojaat etishi mumkin.

Yo'lovchi kuponlari va/yoki posadka talonlari yoxud elektron aviachipta marshrut kvitansiyasi nusxalari bo'lmagan taqdirda, "O'zbekiston havo yo'llari" MAK dastur ishtirokchisining hisobiga sovrinli ballarni hisoblashga kafolat bermaydi. Yo'lovchi kuponlari, posadka talonlari yoxud elektron aviachipta marshrut kvitansiyasi taqdim etilmaganda - ishtirokchilar e'tirozlari qabul qilinmaydi.

Shaxsiy hisob holati to'g'risida ma'lumot.

Shaxsiy hisob holati to'g'risidagi ma'lumotni real vaqt rejimida Ishtirokchining shaxsiy kabinetida Aviakompaniya Saytida olish mumkin. Shaxsiy kabinetga kirish uchun "UzAirPlus" Ishtirokchisi kartasining (Ishtirokchining shaxsiy hisobi) raqamini va PIN kodni kiritish lozim.

Bartaraf etilishi Aviakompaniyaga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan texnik nosozliklar tufayli Ishtirokchining Saytga kirish imkoniyati bo'lmaganda, hisob holati to'g'risidagi ma'lumotni bilish imkoniyati yoqligi uchun Aviakompaniya javobgar bo'lmaydi.

Bir hisob ballari boshqa hisoblar ballari bilan birlashtirilishi mumkin emas.

Parvoz masofasini kmda aniqlagan holda zonalar bo'yicha yo'nalishlar (2-sonli jadval) Chipta quyidagicha rasmiylashtirilgan bo'lsa, ballar hisoblanmaydi:

- Charter reysiga;
 - Bepul aviachiptalar bo'yicha;
 - Har qanday chegirma yoki imtiyoz qo'llanilgan chiptalar bo'yicha, DC chegirmasidan tashqari.
- Ballar, shuningdek, foydalanilmagan chiptalar va yaroqlilik muddati o'tib ketgan foydalanilmagan chiptalar uchun hisoblanmaydi. Ballar hisoblanmaydigan tariflar ro'yxati o'zgarishi mumkin.

Mukofot aviachiptalarini bronlash.

Mukofot aviachiptalarini HY reyslariga bronlash "P" bronlash klassiga – Birinchi klass, "Z" – Biznes klass, "X" – iqtisod klassiga amalga oshiriladi.

Aviakompaniya mukofot bronlash klassida joy yo'q bo'lgan taqdirda Dastur Ishtirokchisi ballaridan foydalanib mukofot tashuvini aniq sana va reysga bronlashni rad etish huquqini o'zida qoldiradi.

Mukofot aviachiptasini rasmiylashtirish.

Mukofot olish huquqini beruvchi ballarni yig'ish chog'ida dastur ishtirokchisi mukofot aviachiptasini olishi yoki unga xizmat ko'rsatish klassi mukofot tariqasida oshirilishi mumkin. Mukofot aviachiptasini olishni yoki xizmat ko'rsatish klassini mukofot tariqasida oshirishni rasmiylashtirish "UzAirPlus" xizmati ofisi ishtirokchi hisobidagi faol (haqiqiy) ballarning zarur miqdori mavjudligini tasdiqlagandan so'ng mumkin bo'ladi.

Mukofot aviachiptasini yoki xizmat ko'rsatish klassini mukofot tariqasida oshirilishini rasmiylashtirish MAK Vakolatxonalarining sotish ofislarida va O'ZR hududida MAKning o'z ofislarida amalga oshiriladi.

Dastur Ishtirokchisi e'lon qilingan davlat, aeroport va boshqa yig'imlar to'lovi uchun javobgardir.

Mukofot aviachiptasini yoki xizmat ko'rsatish klassini mukofot tariqasida oshirilishini rasmiylashtirish chog'ida ko'rsatilgan mukofotga tegishli faol ballar miqdori ishtirokchining shaxsiy hisobidan yechiladi. Hisobdan ballar yechilishi dasturning elita ishtirokchisi mavqeining saqlanishiga ta'sir etmaydi. (3-sonli jadvalga muvofiq).

Mukofot aviachiptasi marshrutining o'zgarishi.

MAK muntazam reyslarida mukofot aviachiptasining tashish marshrutini o'zgartirishga aviachipta qayta rasmiylashtirilishi sharti bilan ruxsat beriladi. Bunda aviachipta qayta rasmiylashtirilishi uchun e'lon qilingan

barcha yig'img'lar va boshqa zarur yig'img'lar undiriladi hamda, zarur bo'lganda, Ishtirokchi hisobidan chiqarish yo'li bilan marshrutlar o'rtasidagi ballar tafovuti to'ldiriladi.

Aviakompaniyaning muntazam reyslari "UzAirPlus" dasturi uchun maxsus mukofot zonalariga birlashtirilgan. Mukofot aviachiptasining marshrutning bir mukofot zonasi doirasida o'zgartirilishi aviachiptani qayta rasmiylashtirish va Ishtirokchining shaxsiy hisobida tegishli o'zgartishlarni (aviachipta marshruti va raqami to'g'risidagi ma'lumotlar o'zgartirilishi qismida) amalga oshirish yo'li bilan bajariladi, bunda ishtirokchi tomonidan tegishli yig'img'lar to'lanadi. Ishtirokchi mukofot aviachiptasining marshrutini mukofot aviachiptasini rasmiylashtirish uchun ko'proq miqdorda ballarni talab etuvchi zonada joylashgan boshqa marshrutga ixtiyoriy ravishda o'zgartirishi ishtirokchining shaxsiy hisobida zarur miqdorda ballar mavjud bo'gan holdagina amalga oshiriladi, bunda ishtirokchi hisobidan ballarning zarur miqdori olinadi, ballar o'rtasidagi tafovut to'ldiriladi hamda marshrutni o'zgartirish uchun zarur bo'lgan barcha yig'img'lar to'lovi amalga oshiriladi.

Ishtirokchi tomonidan mukofot aviachiptasining marshruti mukofot aviachiptasini rasmiylashtirish uchun kamroq miqdorda ballarni talab etuvchi zonada joylashgan boshqa marshrutga ixtiyoriy ravishda o'zgartirilishi, ishtirokchining shaxsiy hisobiga kiritilgan o'zgartishlar asosida, marshrut o'zgartirilib va ishtirokchi tomonidan zarur yig'img'lar to'lanib, aviachiptani yangisiga qayta rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda dastlabki aviachiptani rasmiylashtirish uchun sarflangan ballar tafovuti qaytarilmaydi.

Mukofot aviachiptasida har qanday o'zgartishni amalga oshirish aviachiptaning parvoz uchun amal qilishi muddati doirasidagina mumkin bo'ladi.

Mukofot aviachiptasini bekor qilish.

Sovrinli aviachipta yoki xizmat ko'rsatish klassi mukofot tariqasida oshirilgan aviachipta bekor qilingan hollarda, yechilgan ballar qaytarilmaydi. Barcha foydalanilmagan belgilangan davlat, aeroport yig'img'lari va boshqa yig'img'lar yo'lovchiga belgilangan tartibda qaytariladi.

Mukofot aviachiptasining amal qilish muddati.

Mukofot aviachiptasi parvozni amalga oshirish uchun olti oy davomida haqiqiy hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish klassi mukofot tariqasida oshirilgan aviachiptaning amal qilish muddati xizmat ko'rsatish klassi oshirilgan to'langan tarifning amal qilish muddati bilan belgilanadi.

Uchib ketish sanasi majburan o'zgartirilgan hamda yo'lovchi kasalligi tibbiy guvohnoma bilan tasdiqlangan hollarda qayta bronlash uchun yig'img'lar undirilmaydi.

Mukofot aviachiptasini qaytarish.

Mukofot aviachiptasi uchun sovrinli ballar qaytarilmaydi. Tashuvchi harakatlari bilan bog'liq fors-major vaziyatlari bo'yicha mukofot aviachiptasini qaytarish holatlari bundan mustasno. Bunday holatlarda va yo'lovchi tanlovi bo'yicha quyidagilar amalga oshiriladi:

- ko'rsatilgan holatlar uchun aviakompaniyaning nazarda tutilgan amaldagi qoidalariga muvofiq yo'lovchi aviachiptasini qayta bronlash va amal qilish muddatini uzaytirish, bunda yo'lovchidan qayta bronlash uchun yig'img' va jarimalar undirilmaydi, yoki;
- bir mukofot zonasi doirasida marshrutni o'zgartirish yo'li bilan mukofot aviachiptasini qayta rasmiylashtirish, bunda yo'lovchidan aviachiptani qayta rasmiylashtirish uchun yig'img' va jarimalar undirilmaydi, yoki;
- mukofot aviachiptasini bekor qilish va yo'lovchiga davlat, aeroport yig'img'lari va boshqa yig'img'lar sifatida to'langan summalarni qaytarish, bunda yo'lovchi hisobidagi mukofot aviachiptasini rasmiylashtirish uchun ishlatilgan faol ballar tiklangan holda har qanday jarima yig'img'lari ushlab qolinmaydi. Bunday tiklangan ballarning amal qilish muddati uzaytirilmaydi.

"UzAirPlus" dasturi ishtirokchisi kartasining yo'qolishi.

Yo'lovchi tomonidan "UzAirPlus" dasturi ishtirokchisining doimiy kartasi yo'qotilganda, u "UzAirPlus" xizmati yoki MAK vakolatxonasiga ariza bilan murojaat qilishi shart, u yerda unga karta dublikati beriladi. Plastik karta dublikatini rasmiylashtirish chog'ida kartochni yo'qolgan uchun jarima sanksiyalari sifatida 1500 sovrinli ballar Dastur ishtirokchisi hisobidan yechiladi.

Hisob holatini kuzatib borish va kartalar darajasining o'z vaqtida oshirilishini nazorat qilish "UzAirPlus" xizmati va MAK vakolatxonalarini tomonidan bevosita yo'lovchilar murojaat qilganda amalga oshiriladi. MAK

vakolatxonasi tomonidan Ishtirokchi hisobi detallarini o'zgartirish zarurati aniqlanganda, Vakil tegishli o'zgartishlar kiritish uchun "UzAirPlus" xizmatini xabardor qiladi.

Dastur ishtirokchisi hisob holatini hisoblashga taqdim etilgan ma'lumot uchun shaxsan javobgar va aviakompaniya sayti orqali yig'ilgan ballarning amal qilish muddatini mustaqil ravishda kuzatadi.

To'liq mukofot aviachiptasi yoki xizmat ko'rsatish klassining mukofot tariqasida oshirilishi uchun sovrinli ballar hisoblanmaydi.

Xizmat ko'rsatish klassining mukofot tariqasida oshirilishi yo'lovchi hoxishiga ko'ra faol ballarning yetarli miqdori mavjud bo'lishi sharti bilan to'lov amalga oshirilgan to'liq marshrut uchun, shuningdek, parvoznig alohida uchastkalari uchun ham mumkin. Xizmat ko'rsatish klassining mukofot tariqasida oshirilishini rasmiylashtirish yangi aviachiptani rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Dastur ishtirokchisining individual statusini belgilash tartibi.

"UzAirPlus" dasturida individual ravishda ishtirok etish uchun 3 ta darajadagi plastik kartalar nazarda tutilgan:

- "PREMIUM" – 1-daraja (karta raqami 333dan boshlanadi)
 - "SILVER" – 2-daraja (karta raqami 777dan boshlanadi)
 - "GOLD" – 3-daraja (karta raqami 999dan boshlanadi)
- "Faol ballar" va "status ballari" nima?**

"UzAirPlus" dasturida "faol ballar" va "status ballari" tushunchasi qo'llanadi. Ballarning faol miqdori – bu "UzAirPlus" dasturi ishtirokchisi mukofot aviachiptasini olishi va xizmat ko'rsatish klassining mukofot tariqasida oshirilishi uchun ishlatishi mumkin bo'lgan haqiqiy ballar miqdori.

Turli darajalar hisobida bo'lgan status ballari qo'shimcha imtiyozlarni taqdim etish yo'li bilan (4-jadval) dastur ishtirokchisiga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish va Dasturning elita ishtirokchisi statusiga ega bo'lish uchun ishlatiladi.

Status ballari – bu Ishtirokchi tomonidan dasturda ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab yig'ilgan ballarning umumiy miqdori.

Daraja o'zgarishi "UzAirPlus" dasturidagi mukofotlarni olish uchun ishlatiladigan umumiy ballar miqdoriga ta'sir etmaydi.

Shaxsiy hisob va yig'ilgan sovrinli ballarning amal qilish muddati.

Agar ishtirokchi hisobga olingan haqiqatan amalga oshirgan so'nggi parvozi sanasidan 18 oy davomida parvozlarni amalga oshirmasa, uning hisobi bekor qilinadi.

Yig'ilgan sovrinli ballar ular hisoblangan parvoz bajarilgan vaqtdan boshlab 36 oy davomida haqiqiy hisoblanadi. Agar Dastur ishtirokchisi sovrinli ballarni ularning amal qilish muddati davomida ishlatmagan bo'lsa, 36 oy avval bajarilgan parvozlarni uchun berilgan ballar bekor qilinadi.

Bekor qilingan hisob va uning ma'lumotlari tiklanmaydi. Vaqtincha karta hisobida 5000 va undan ortiq ball yig'ilganda, Dastur ishtirokchisi "PREMIUM" darajali karta ochadi.

Elita ishtirokchilari bo'lgan "SILVER" va "GOLD" darajali kartalar egalariga imtiyozlar.

"SILVER" va "GOLD" darajali kartalar egalariga ishtirokchining joriy hisobida faol ballar mavjud bo'lishi sharti bilan qo'shimcha imtiyozlar taqdim etiladi.

Bagajni bepul tashish me'yorlarini oshirish tariqasida Imtiyozga ega bo'lish huquqi "SILVER" va "GOLD" kartalari egalariga, CIP zalida bepul xizmat ko'rsatish huquqi "GOLD" kartalari egalariga beriladi. Imtiyozlar tegishli karta va ishtirokchining joriy hisobida faol ballar mavjudligini taqsiqlovchi ballar balansi raspechatkasi taqdim etilgan holda beriladi.

CIP zalida xizmat ko'rsatishga imtiyozli xizmatlarni taqdim etish MSO orqali rasmiylashtiriladi, bagajni bepul tashish me'yorlarini oshirishga esa pullik bagaj kvitansiyasini rasmiylashtirish yo'li bilan taqdim etiladi.

"PREMIUM" kartasi hisobida 250 000 va undan ortiq status ballari yig'ilganda Dastur ishtirokchisi uchun "SILVER" darajasining boshlang'ich nolga teng status hisobi ochiladi.

Ishtirokchining hisobidagi sovrinli ballarni yig'ishda qatnashadigan faol ballari miqdori saqlanib qoladi.

“SILVER” kartasi hisobida 350 000 va undan ortiq status ballari yig'ilganda Dastur ishtirokchisi “GOLD” darajasining boshlang'ich nolga teng status hisobini ochadi.

“SILVER” va “GOLD” kartalari egalari qo'shimcha imtiyozlari ro'yxati.

Aviakompaniya “SILVER” va “GOLD” kartalari egalari uchun imtiyozlarni o'zgartirish huquqini o'z zimmasida qoldiradi.

«UzAirPlus» korporativ dasturida ishtirok etish qoida va shartlari

Tashkilot (yuridik shaxs) UzAirPlus dasturida korporativ asosda ishtirok etishi mumkin.

UzAirPlus korporativ dasturi qatnashchisi bo'lgan tashkilot Dasturda qatnashish uchun ariza berishi, o'z xodimlaridan birini UzAirPlus dasturi bo'yicha menejer qilib tayinlashi va UzAirPlus korporativ dasturida ballarni yig'ilishida ishtirok etuvchi tashkilot xodimlarining ro'yxatini berishi lozim.

UzAirPlus korporativ dasturida ishtirok etuvchi tashkilot menejeri o'z tashkiloti hisobini yuritadi, ballarni qo'shish bo'yicha ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun aviakompaniyaga murojaat qiladi, korporativ Dasturda ballarni to'plashda qatnashuvchi xodimlarning pasport ma'lumotlari o'zgargan holda o'z vaqtida xabar beradi.

Korporativ Dasturda ishtirok etuvchi xodimlar ro'yxati tashkilot blankasida beriladi, tashkilot rahbari imzosi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi. Ro'yxatga tashkilot xodimlarining pasport nusxalari ilova qilinadi (dasturda ishtirok etish 16 yoshdan).

Tashkilot xodimlari ro'yxatini o'zgartirish, shuningdek ishtirok etuvchi tashkilot rahbari imzosi va tashkilot muhri bilan tasdiqlangan blankadagi xat asosida amalga oshiriladi.

Ishtirok etuvchi tashkilot UzAirPlus dasturi bo'yicha faqat bitta “Business” kartasiga ega bo'lishi mumkin, karta raqami «5» dan boshlanadi.

“Business” kartasining old qismida tashkilot nomi shaklida yoziladi.

“Business” korporativ kartasi faqat bitta darajaga ega. Korporativ ishtirokchi uchun boshqa qo'shimcha imtiyozlar taqdim etilmaydi.

Korporativ dasturda ballar tashkilot hisobiga faqat rasmiylashtirish vaqtida ushbu aviachiptalarning korporativ dasturda ishtirok etishi to'g'risidagi ma'lumot kiritilgan taqdirda qo'shiladi (ya'ni korporativ kartochka raqami ko'rsatilganda).

Korporativ kartochka raqami ko'rsatilmagan aviachiptalar korporativ dastur bo'yicha ballar to'plashda ishtirok etishi mumkin emas.

Mukofotli aviachiptasini rasmiylashtirish korporativ hisobda etarli darajada mukofot ballari bo'lgan taqdirdagina amalga oshiriladi.

Mukofotli aviachipta faqat tashkilot korporativ hisobiga ballarni to'plashda ishtirok etuvchi sifatida tayinlangan tashkilot xodimining nomiga rasmiylashtirilishi mumkin.

Mukofotli aviachiptani olish uchun korporativ dasturda ishtirok etuvchi tashkilot tomonidan tashkilot blankasida, rahbar imzosi va tashkilot muhri bilan tasdiqlangan yozma talabnoma yoki o'rnatilgan shakldagi ishonchnoma taqdim etilishi zarur.

Korporativ dastur ishtirokchisi bo'lgan tashkilot o'zining ohirgi haqiqiy qatnovi uchun qo'shilgan ballar hisobga olingan kundan boshlab 12 oy davomida qatnovni amalga oshirmasa uning korporativ hisobi bekor qilinadi.

Tashkilotning dasturda ishtirok etuvchi xodimlari va menejerining qatnovlari uchun beriladigan ballar korxonaning “UzAirPlus” dasturidagi korporativ hisobiga qo‘shiladi. Yig‘ilgan mukofot ballari qatnov amalga oshirilgan paytdan boshlab 24 oy davomida haqiqiydir. Agar dasturning korporativ ishtirokchisi mukofot ballarini ularning yaroqlilik muddati davomida ishlatmasa, 24 oydan ortiq muddatda amalga oshirilgan qatnovlar uchun hisoblangan ballar bekor qilinadi.

Mukofot aviachiptasi tashkilot ro‘yxatidagi har qanday dasturda ishtirok etuvchi xodimga rasmiylashtirilishi mumkin. Mukofot aviachiptasi uchun kerakli ballar miqdori quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi: **Sovrin. Aviachipta = sovrin. Ballar/(1+0.03*N)**,

Shunda,

Sovrin. Ballar – tanlangan zona bo‘yicha mukofot ballari (3-jadval), N – ishtirok etuvchi tashkilot ro‘yxatiga binoan xodimlar soni.

Dasturda ishtirok etuvchi tashkilotning korporativ ro‘yxatidagi xodimlar soni qisqarganda, ro‘yxatdan chiqib ketuvchi xodimning qatnovlari uchun hisoblangan ballar bekor qilinadi.

“UzAirPlus” dasturining oilaviy “Family” darajasida ishtirok etish qoida va shartlari.

“UzAirPlus” xolis dasturining “Family” darajasida har qanday ishtirokchi - “SILVER”, “GOLD”, “PREMIUM” individual kartasi egasining oila a‘zolari ishtirok etishi mumkin.

Oilaviy dasturda “Family” darajasida “UzAirPlus” dasturi individual kartasi sohibining oila a‘zolari ishtirok etishi mumkin. Oilaviy dasturda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan oila a‘zolariga quyidagilar kiradi: er, xotin, 2 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar. Hisob sohibining boshqa qarindoshlariga dasturda ishtirok etish huquqi berilmaydi.

“UzAirPlus” dasturining oilaviy darajasiga kirish uchun individual dasturning “SILVER”, “GOLD”, “PREMIUM” darajasining doimiy ishtirokchisi “UzAirPlus” xizmati yoki MAK vakolatxonasiga ariza bilan murojaat qilishi lozim. Oilaviy darajaga ro‘yxatga olish arizachi tomonidan taqim etilgan pasportlar, nikoh to‘g‘risidagi guvohnoma (rasmiy nikoh tuzilganini tasdiqlovchi har qanday boshqa hujjat), bolalarning tug‘ilganlik haqidagi guvohnomalari yoki vasiylik to‘g‘risidagi guvohnoma asosida amalga oshiriladi. “Family” oilaviy kartasi bir darajaga ega. “SILVER” va “GOLD” darajasi individual kartasi egasining imtiyozlari oila a‘zolariga taqdim etilmaydi.

Har bir ishtirokchi - individual karta egasi bittadan ortiq bo‘lmagan oilaviy hisob ochish huquqiga ega, bunda qaysi ishtirokchi nomiga hisob ochilgan bo‘lsa, shu ishtirokchi hisob egasi hisoblanadi. Ishtirokchining individual hisobi bekor qilinishi yoki yopilishi hollarida – oilaviy karta ham xuddi shunday bekor qilinadi yoki yopiladi.

“UzAirPlus” “Family” oilaviy kartasi raqami 888dan boshlanadi.

Faqat hisob egasigina ro‘yxatga olingan xohlagan oila a‘zosi kelgusida mukofotlarni yozib berish uchun o‘zining “SILVER”, “GOLD”, “PREMIUM” kartalari shaxsiy hisobidan “Family” darajasi hisobiga ballarning istalgan miqdorini o‘tkazishi mumkin. Qolgan oila a‘zolari tomonidan ularning shaxsiy kartalaridan (hisoblarni birlashtirish) “Family” hisobiga ballarning o‘tkazilishi, huddi shunday tarzda ballarni hisob egasi hisobiga qaytarilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

“Family” kartasining mavjudligi oila a‘zolariga boshqa individual darajalarda shaxsan ishtirok etish imkoniyatini beradi. Bunda hisob egasi yoki uning oila a‘zolari foydalangan aviachiptalar uchun ballar tanlovga ko‘ra, uning individual hisobiga yoki “Family” darajasi hisobiga hisoblanadi. Ballar aviachiptani yozib berish vaqtida ko‘rsatilgan hisobga hisoblanadi (individual yoki oilaviy).

“UzAirPlus” dasturining oilaviy darajasi ishtirokchilariga mukofot xizmatlarini taqdim etish tartibi. Ishtirokchining oilaviy darajasida sovrinli ballarni yig‘ish.

Dastur ishtirokchisi hisoblangan barcha oila a‘zolari “Family” darajasi hisobida sovrinli ballarni yig‘ish huquqiga ega.

“Family” darajasi hisobida sovrinli ballarni yig‘ish Karta egasining individual hisobidan ballarni o‘tkazish yo‘li bilan, yoxud hisob egasining foydalanilgan aviachiptalari, shuningdek, Dastur ishtirokchilari hisoblangan

uning oila a'zolari tomonidan foydalanilgan aviachiptalar uchun sovrinli ballarni hisoblash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda "Family" darajasi hisobiga sovrinli ballar 2-jadval zonalariga binoan ballar miqdoridan 0,50 koeffitsient bilan hisoblanadi (hisob egasining individual hisobidan o'tkaziladi).

"Family" oilaviy darajasida ballarning zarur miqdori yig'ilgan vaqtdan boshlab ("Family" darajasi hisobining egasi ballarning zarur miqdorini hisobga o'tkazadi) oila a'zolari va hisob egasi mukofot chiptasini olish yoki xizmat ko'rsatish klassini mukofot tariqasida oshirish huquqiga ega bo'ladi.

Oilaviy daraja ishtirokchisining oila a'zolari uchun mukofotni rasmiylashtirish.

"Family" darajasining ishtirokchilariga mukofot chiptalari yoki xizmat ko'rsatish klassini mukofot tariqasida oshirish 3-jadvalga binoan ballarning zarur miqdori hisobidan yig'ilgan sovrinli ballar hisobiga rasmiylashtiriladi.

Mukofot aviachiptalari kuzatuvchisi bo'lmagan bolalarni tashish uchun rasmiylashtirilmaydi.

Sovrinli ballarning amal qilish muddati.

Yig'ilgan sovrinli ballar ular hisoblangan parvoz bajarilgan vaqtdan boshlab 36 oy davomida amal qiladi.

Agar oila – oila a'zolari ballarning amal qilish muddati davomida ulardan foydalanmagan bo'lsa, 36 oydan ko'p vaqt ilgari bajarilgan parvozlarchun berilgan ballar bekor qilinadi.

Dasturining "Family" darajasida ishtirok etayotgan bolalar 16 yoshga to'lganidan so'ng dasturdan chiqib ketadi.

Agar oila a'zolari so'nggi hisobga olingan haqiqiy parvoz sanasidan keyin 18 oy davomida parvozlarni amalga oshirmasa, hisob bekor qilinadi.

Ishtirokchining individual hisobi bekor qilingan yoki yopilganda, oilaviy karta ham xuddi shuningdek yopilishi yoki bekor qilinishi lozim.

Dastur ishtirokchilariga nisbatan qo'llaniladigan jarimalar.

Asossiz imtiyozlarni olish maqsadida karta boshqa shaxsga berilgan taqdirda aviakompaniya individual hisobdagi ballar miqdorini 15000 balgacha kamaytirish ko'rinishida jarima sanksiyalarini qo'llash huquqini o'zida saqlab qoladi.

Qoidalarining muntazam ravishda buzilishi yoki doimiy karta asossiz imtiyozlarni olish maqsadida bir necha bor boshqa shaxslarga berilishi hollarida, aviakompaniya ishtirokchini "UzAirPlus" dasturi a'zolari qatoridan chiqarish ko'rinishida jarima sanksiyalarini qo'llash huquqini o'zida saqlab qoladi.

Dastur ishtirokchilarining pasport ma'lumotlari o'zgargani to'g'risida o'z vaqtida ma'lum qilinmasa, aviakompaniya Dasturda ro'yxatga olingan pasport ma'lumotlaridan farq qiladigan pasport ma'lumotlari ko'rsatilgan aviachiptalar uchun sovrinli ballarni hisoblamaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

Shaxsiy hisobdan Ishtirokchi roziligisiz foydalanish imkoniyatini istisno etish uchun u barcha oqilona va zarur choralarini ko'rishi, jumladan, ShIR va Ishtirokchi kartasining saqlanishini ta'minlashi va ulardan uchinchi shaxslarning foydalana olishiga yo'l qo'ymasligi lozim.

Dastur ishtirokchisining Shaxsiy hisobiga uning ShIRdan foydalangan holda uchinchi shaxslarning ruxsatsiz kirishi oqibatida ishtirokchiga yetkazilgan zarar uchun Aviakompaniya javobgar bo'lmaydi.

Aviakompaniya noqonuniy yoki yolg'on yo'llar bilan ballarni to'plagan har qanday ishtirokchining ballarini bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Boshqa tillarga qilingan tarjima borasidagi noaniqliklar tufayli Tez-tez uchadigan yo'lovchilar uchun "UzAirPlus" dasturi ishtirokchilarini mukofotlash qoidalari"ni izohlash va qo'llash bo'yicha kelishmovchiliklar yuzaga kelgan hollarda "UzAirPlus" dasturi ishtirokchilarini mukofotlash qoidalari"ning rus tilidagi matni asl nusxa hisoblanadi.

Qog'ozda rasmiylashtirilgan sovrinli aviachipta yo'qolsa, o'g'irlansa, ishdan chiqsa, dublikat rasmiylashtirilmaydi, ishtirokchi hisobiga ballar qaytarilmaydi.